



ALLERGIK KASALLIKLARNING TARQALGANLIGI TURLARI VA OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Jo'raboyeva Sevara

Ablxasanova Muhtasarxon

2-Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
"Hamshiralik ishi kafedrası" Marg'ilon shahar, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya:

Allergiya - yunoncha "allos" begona va "ergo" - ta'sir so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, u organizmning begona, yot moddalarga o'zgacha ta'sir qilish qobiliyatini anglatadi. Dunyoda allergik kasalliklar shakllanishi va tarqalishiga tashqi muhit omillarining ta'siri, yangidan-yangi allergenlarning paydo bo'lishi, mikroekologiyaning (ichaklar, teri, shilliq qavatlar florasining) buzilishi, stress sabab bo'lmoqda. Eng ko'p tarqalgan etiologik muhim allergenlar ichida o'simliklar changi alohida ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi kunda ularning 700 dan ortiq turi aniqlangan. Allergik kasalliklar geterogenligi, irsiy omillarning hamda tashqi muhit omillarining o'zaro ta'siri oqibatida allergenlar spektri kengayib bormoqda.

Kalit so'zlar: allergen. Autoimmune, gistamin, gelmint, rinit, bronxit, astma, profilaktika, antigistamin

Tadqiqot maqsadi. Allergik rinit dunyo bo'yicha keng tarqalgan bo'lib, hozirgi ushbu kasallikdan aholining 30% - 50% aziyat chekmoqda. Ushbu patologiyaning rivojlanishida tibbiy-biologik va sanitar-gigienik omillarning ta'siri bilan bir qatorda atrof muhit omillarining ta'siri ham muhim o'rin tutadi. Atmosfera havosining ifloslanishi allergik rinitning kelib rivojlanishiga va qaytalanishiga sabab bo'lishi olimlarning tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha tasdiqlanmoqda. JSST ning ma'lumotlariga ko'ra allergik kasalliklar yer yuzi aholisining 30 foizini tashkil qilishi va turli mamlakatlarda kasallanish darajasi bir-biridan ancha farq qilishi aniqlangan. Allergik rinit hastaligini taxlil qilish va profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th October, 2025

Materiallar va usullar. Qishloq va shahar aholisi orasida kasallik tarqalish ko'rsatkichi bir xil emas. Farg'ona viloyati Qo'shtepa va Marg'ilon shaharda allergik rinit holatlari mavsumiy ko'rinishda kuzatiladi. Allergik rinit kasalligini aholi, shu jumladan yoshlar, qariyalar va bolalarda jins kesimida statistikasi taxlili.

I. Ekzoallergenlar - insonni o'rab turgan muhitda yashaydi va o'z navbatida ular ham qator kichik guruhlarini tashkil qiladi: Oziq-ovqat allergenlari 2 guruhga bo'linadi: Birinchisi — shartsiz (obligat) allergenlar: sitrus mevalar, shokolad, kofe, asal, mevalar, yong'oqlar, tuxum, baliqlar, sut, tovuq go'shti; ikkinchi — shartli (fakultativ) guruh bo'lgan: olma, sabzi, kartoshka, un va boshqalar.

- Epidermal allergenlar (turli hayvonlarning juni, ot qayzg'og'i). Epidermal allergenlarga nisbatan sezuvchanlik ko'pincha tez sodir bo'ladigan reaksiyalar tipida va odatda oziq-ovqat va uy-ro'zg'or allergiyalari bilan birgalikda kechadi.
- Bolalarda bu kasallik 20 foiz holatlarda respirator allergoz tipida o'tadi.
- Bakterial allergenlar (ko'proq shartli patogen mikroblar - streptokokklar va boshqalar). Sezuvchanlik odatda tishlarda, bodomcha bezlarda, ichaklarda, jigarda, bronx-o'pka yo'llarida surunkali infeksiya o'chog'i bo'lgan hollarda rivojlanadi. Bunda kasallikning infeksiyon-allergik turi aniqlanadi: astma, rinit, qavarchiq va Kvinke shishi.
- Zamburug'li allergenlar (mog'or zamburug'larining va achitqi zamburug'larining sporalari). Asosan patogen bo'lmagan zamburug'lar turi.
- Virusli allergenlar (hujayra protoplazmasi bilan oldindan birikkan virus).
- Gelmintli allergenlar (gijjalar va ularning zaharlari).
- Insekt allergenlar (asalari zahri, chivinlar, hasharotlar ustki qobig'i qoldiqlari).

II Endoallergenlar. Ular sog'lom inson organizmida doimo joylashgan, lekin qalin qobiqqa o'ralgan bo'ladi, umumiy qon oqimiga tushmaydi. Shuning uchun faqat ularni boshqa to'qimalardan ajratib turuvchi to'siqlar buzilgandagina o'z ta'sirini namoyon qiladi. Ulardan eng asosiylari: qalqonsimon bezning tireoglobulini, muskul tolalaridagi mielin, ko'z gavhari oqsili, nerv o'tkazuvchi tolalar oqsili, sperma (urug' suyuqligi). Nafas yo'llari allergik kasalliklarini oldini olish usullariga kasallik oldi davrida ishlab chiqarishdagi zararli omillarga qarshi kurashish, profilaktik ko'riklar o'tkazish, kasallik xurujini oldini olish va davolashlar kiradi. Allergik kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlari har tomonlama bo'lishi kerak, ular birlamchi va ikkilamchi tadbirlarga bo'linadi. Birlamchi choratadbirlarga, asosan



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th October, 2025

atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy umum- davlat choratadbirlarini ishlab-chiqarish, yashash sharoiti va mehnat sharoitini qulaylashtirish, ishlab chiqarishdagi kasbga oidzararli omillarga qarshi kurashish kiradi. Bunga yana tibbiy (dispanser ko'rigi) va alohida xususiy tadbirlar (chekishni tashlash) ham kiradi. Ikkilamchi choratadbirlarga bular bemorlarni shifoxonalarda, poliklinikalarda, tibbiy sanitar qismlarida, sanatoriyalarda davolash va sog'lig'ini tiklash, allergologik kuzatish usullarini tashkil qilish kiradi.

Natijalar. Allergiyaning infeksiyaga oid turlarida infeksiya o'choqlarini o'z vaqtida davolash tozalash (tonzillit, sinusit) kerak. Oziq-ovqat mahsulotlariga allergiyasi bo'lgan bemorlarning kundalik ovqat mahsulotlaridan allergenlarni (shokolad, sitrus mevalar) istisno qilish. Allergik kasalliklari bo'lgan barcha bemorlarga uy-ro'zg'orda ishlatiladigan kimyoviy moddalardan foydalanish man etiladi. Organizmni chiniqtirish va unchalik og'ir bo'lmagan jismoniy mehnat bilan shug'ullanish ham allergik kasalliklarni oldini olishda muhim o'rin tutadi. Allergik kasalliklari bo'lgan bemorlarga sportning ayrim turlari — yengil atletika, suzish, tennis o'ynash mashg'ulotlari bilan shug'ullanish tavsiya etiladi. Allergik kasalliklarini oldini olishda kasbni to'g'ri tanlash ham jiddiy ahamiyatgaega. Kanalar sezuvchanlik ortishi bilan yuzaga kelgan bronxial astma kasalligini oldini olish uchun ko'rpa-to'shaklarni quyosh nurlarida nurlantirish tavsiya qilinadi. Kunduzgi vaqtda 2 soat davomida nurlantirish kanalarini butunlay qirilib, yo'q bo'lishiga olib keldi. O'rin-ko'rpalarga 5 foizli borat kislota yoki 5 foizli tuz eritmasi bilan ishlov berishda ham ijobiy natijalar olindi. Bunda 80 foizli kanalar qirilib, yo'q bo'ldi.

XULOSA

Allergik kasalliklarini oldini olish omillaridan biri - maxsus giposensibilizatsiya hisoblanadi. O'z vaqtida o'tkazilgan immunoterapiya kasallikni xurujini oldini oladi. Bemorlarni sog'lig'ini kuzatib borish usuli (dispanserizatsiya) sanator- kurort sharoitida davolash ham oldini olish chora-tadbirlarining eng samarali usullari hisoblanadi. Bunda kurort joylarning geografik iqlim sharoiti, qulay harorat, o'rtacha namlik, quyosh nurlari juda ham yuqori qizdirmaydigan sharoitlari,



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th October, 2025

atmosfera havosida polyutantlar, muallaq holda turuvchi birikmalar bo‘lmasligi yetakchi o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uza.uz>
2. <https://gemotest.ru>
3. <https://inlibrary.uz>